

**O'ZBEK KOMPYUTER LINGVISTIKASINING SHAKLLANISHIGA DOIR TADQIQOTLAR  
TASNIFI**

*Ilmiy raxbar: Tolipov Izatullabek Abdulhoy o'g'li  
Termiz davlat universiteti Yoshlar ittifoqi  
boshlang'ich tashkiloti yetakchisi.*

*Abramatova Mohichehra Abdurazzoq qizi  
Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti  
3-kurs 220- guruh talabasi*

Muammoning dolzarbli. Har bir tilning shakllanishida shu til vakillarining tilga uni o'rghanish tadqiq qilishga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqning xalq sifatida o'zligini namoyon etishida til muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli mamlakatimizda ona tilimizga alohida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz mustaqillikka erishishi arafasida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, o'zbek tilining davlat tili sifatida e'tirof etilishi buning yorqin isbotidir. Darhaqiqat, til xalq ma'naviyati, madaniyati ko'zgusidir. "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy, ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyonbo'ladi.Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi orqali singadi.Ona tili–bu millat ruhidir"1.

Til – kishilar orasidagi eng muhim aloqa vositasi, tafakkur quroli. Har bir xalq tilida uning tarixi, xarakteri, badiiy ijodi va tafakkurining o'ziga xos xususiyatlari o'z ifodasini topadi. O'zbek tili boy va imkoniyatlari keng. Uning qudratini hazrat Mir Alisher Navoiy o'z asarlari orqali butun dunyoga mashhur qilgan. Shunday ekan, O'zbekistonda yashayotgan o'zbek xalqi uchun ona tilini bilish, uning bebaho boyliklaridan bemalol foydalana olish ko'nigmalariga ega bo'lish, o'zbek tilini asrash har bir o'zbek farzandining vazifasi va burchidir. Rus tilshunosi V.V.Vinogradov esa: "Og'zaki va yozma nutqning yuksak madaniyati, ona tilini yaxshi bilish va his etish, ularning namunali vositalarini ishlata olish ko'nikmasi – har bir kishi uchun o'z ijtimoiy hayotida va ijodiy faoliyatida eng yaxshi tayanchdir",-deb yozgan edi. Ma'lumki, ijtimoiy hayotda yuz beradigan o'zgarishlar ilm-fanning barcha yo'naliishlarida bo'lganidek, tilshunoslik sohasida ham o'z ifodasini topadi. Tilshunoslikda bir qator yangi sohalar paydo bo'ldi. Bu jarayon asosan, XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa-da, o'zbek tilshunosligida ushbu sohalar (neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, psixolingvistika, geografik tilshunoslik kabi) rivoji mustaqillik davridan so'ng kirib kela boshladi va bir qancha ilmiy ishlarning tadqiqot obyektiga aylana boshladi. Shu jumladan, "XXI asr – kompyuter texnologiyalari asri" ning o'zbek tilshunosligiga olib kirgan yangiligi bo'lmish kompyuter lingvistikasi sohasining rivoji ham. Kompyuter lingvistikasi fani 1960-yilda AQShda shakllandı. Mazkur fan XX asrning o'rtalarida paydo bo'lgan matematik lingvistika fani asoslaridan kelib chiqqan. Tabiiy tillar grammatikasi formal modeli kompyuterda tarjima qilish, tillarga o'rgatish, bilimlarni diagnostika qilish, matnlarni tahrir etish kabi amaliy dasturlarni ishlab chiqishga asos bo'lgani holda kompyuter lingvistikasi

yo`nalishiga zamin yaratdi. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni hal qilishning kompyuter dasturini yaratishdir. Uning asosiy vazifalariga tillarga o`qitish, bilimlarni tekshirish, matnlarni turli jihatdan tahrirlash va mashina tarjimasi uchun mo`ljallangan dasturlarni ishlab chiqish kabilar kiradi.

O`zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish bugungi kungcha inson mehnati bilan amalgalashirilib kelinmoqda. Bu matnlarni tahrir qilishga ketadigan vaqtning oshishiga, iqtisodiy xarajatlarning ortishiga, inson tomonidan qilinadigan xatoliklarga olib keladi. Avtomatik tahrir dasturining asosiy prinsiplari orqali kelgusida bu borada qilinadigan amaliy ishlarda qaysi jihatlariga e'tibor qaratilishi zarurligi keltiriladi. Shuningdek, bugungi kunda jahon kompyuter lingvistikasida amalga oshirilgan ishlarning salmog'i, o`zbek tilshunosligidagi kelgusi tadqiqotishlarining muhim yo`nalishlari haqida so'z boradi.

Tadqiqot predmeti. Microsoft Word (2007) muharrirlik dasturi, G'arb kompyuter lingvistikasida matnni avtomatik tahrir qilish dasturini yaratish bo'yicha qilingan ba'zi tadqiqotlar ilmiy ishning obyekti hisoblanadi. Lotin yozuvida yozilgan rasmiy-idoraviy vailmiy uslubdagi matnlar, lotinyozuviga asoslangan o`zbek adabiy tilining imlo lug'atlari tadqiqotning predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari. Mavzuni yoritishda hozirgi kunda tilshunoslikda keng tarqalgan sistem-struktur metoddan, distributsiya, oppozitsiya, transformatsionvamodelllashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Xorijda kompyuter tilshunosligi bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan. O`zbek adabiy tili materiali asosida eakompyuter tilshunosligi yo`nalishida amaliy ishlar soni u qadar ko'p emas.

O`zbekcha matnlarni kompyuterda qayta ishlash, lingvistik ta'minot yaratish masalalari tadqiq qilingan.

Umumiy nazariy tilshunoslik asoschisi hisoblangan tilshunos olim Vilgelm Fon Gumbolt til va xalq birligini shunday ta'riflagan edi: "Xalq tilida uning ongi bor, xalq ongida esa uning tili. Ularning o'zaro bog'liqligini bundan ortiq ko'rsatib bo'lmaydi". Ana shunday murakkab hodisa bo'lgan aloqa qurolini – tilni murakkab sistema sifatida tadqiq va tahlil qiluvchi tilshunoslik fanida XXI asrga kelib yangidan yangi yo`nalishlar, sohalar paydo bo'la boshladi. Paralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabilar yo`nalishlar vujudga keldiki, tilshunoslikning tadqiqot obyektlari yangicha mazmun kasb eta boshladi va amaliyot bilan bevosita bog'liqlik kasb etdi. Kompyuter lingvistikasi yangi fan tarog'i sifatida 1950-yillarda Amerika Qo'shma Shtatlarida paydo bo'ldi. Tranzistorning ixtiro qilinishi, kompyuter yangi avlodlarining paydo bo'lishi, tillarning ilkmarotaba dasturlanishi mashina tarjimasi bilan bog'liq tajribalarni boshlab berdi. Kompyuter lingvistikasiga oid ilk tadqiqotlar, keyinchalik uning muhim tarmog'iga aylangan mashina tarjimasi bo'yicha olib borilgan. 1960-yillarda ana shunday tekshirish Rossiya o'tkazilgan (masalan, 1964-yil "Kibernetika muammolari" to'plamiga rus tilidan arman tiliga tarjima haqidagi maqola bor). Kompyuter lingvistikasi hozirgi vaqtida nazariy va amaliy fan sifatida to'la shakllanib bormoqda. Uning nazariy fan

ekanligi nutqiy jarayonni, matnni o'rganishning turli xil model (gipoteza)larini yaratishning nazariy asoslarini ishlab chiqishida ko'rindi. Uning amaliy xususiyati esa tarjima mashinalarini yaratish va uning ishlash jarayonini tashkil etishi bilan belgilanadi.

Kompyuter lingvistikasining ana shunday nazariy va amaliy asoslarini belgilashda Daniya olimi L.Elmslev, amerikalik olimlar N.Xomskiy, K.Shenon kabilarningxizmatikattadir. 1955-yilga kelib sobiq Ittifoqda BESM rusumli mashina qurilmasi yordamida inglizcha gaplarni rus tiliga tarjima qilish jarayoni amalga oshirildi (I.K.Belskaya, L.N.Korolev, S.N.Razumovskiy kabilalar). Shundan keyin jahoning Angliya, Fransiya, Avstriya kabi ko'pgina mamlakatlarida olimlar mashina tarjimasi muammolari bilan maxsus shug'ullana boshladilar. Natijada tilshunos olimlar ma'lum bir tilni tipologik jihatdan tasniflash, uning materiallarini analiz va sintez qilish, mashina tiliga o'tkazish bilan shug'ullandilar va muayyan natijalarga erishdilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki. Kompyuter lingvistikasi masalalarining umumiyo'nalishlarini aniqlash shunisi bilan ahamiyatliki, ularning har biri amaliy jihatdan matn muammosiga borib taqaladi. G'arb kompyuter lingvistikasi esa uzoq yillik tadqiqotlarga egaligi, ilmiy jihatdan ishlanganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ishimizning avvalida kompyuter lingvistikasining yo'nalishlari borasida amalga oshirilgan samarali ishlar o'rganildi. Tabiiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini inobatgaolib, matn muammosiga oid bo'lgan dasturlarning lingvistik ta'minoti tuzilganishlar puxta o'rganib chiqildi.

#### **FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Abduraxmonov X., Rafiev A., Shodmonqulova D. O'zbek tilining amaliy grammatikasi.–Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi.–Toshkent:Fan,2007.–B.165-173.
3. Ikromova H.Z. Inson-kompyuter-kelajak. –Toshkent: O'zbekiston, 1991. – B. 8-24.